

**№7 (3) 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 7 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Үрманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li</i>	
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR .....	9-15
<i>Zoqidov Қобилжон Тоиржонович</i>	
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ .....	16-20
<i>Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich</i>	
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIY TA'MINOT SIYOSATI .....	21-26
<i>Хайназаров Баҳромжон Баҳтиёрович</i>	
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРӢЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) .....	27-32
<i>Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРФИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ .....	33-41
<i>Bobodustov Bobur Mirzaboyevich</i>	
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI .....	42-47
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
XX АСРНИНГ 30-50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА .....	48-55

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

<i>Казаков Олим Сабирович</i>	
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙўНАЛИШЛАРИ .....	56-60
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	61-67
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI .....	68-76
<i>Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадирович</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА .....	77-82
<i>Xolmurotov Fozil Saribayevich</i>	
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH .....	83-91
<i>Худайназарова Диляром Хайруллаевна</i>	
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	92-100

<i>Foyipnazarov Sanjar Bahodirovich</i>	
СУНЬЙИ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРӢӢ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР .....	101-110
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i>	
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI .....	111-119
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Юлдашев Farruh Abdurahmanovich</i>	
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙГУНЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....	120-126
<i>Tojiboev Sarvar Pўlatjon ўғли</i>	
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ .....	127-132
<i>Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA ASOSLARI .....	133-137
<i>Abdullayev Temur Bobir o'g'li</i>	
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI .....	138-143
<i>Islamov Kamol Tashkulovich</i>	
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVİY YONDASHUVLAR NISBATI .....	144-150
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKALARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....	151-160
<i>Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li</i>	
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISHI .....	161-167
<i>Мухамедова Феруза Баходир кизи</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. КИМА.....	168-174
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich</i>	
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI .....	175-180
<i>Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda</i>	
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING QO'LLANILISHI .....	181-185
<i>Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi</i>	
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI .....	186-190

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Жавлиев Нурали Баходирович</i> МАЪМУРИЙ-ХУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	191-195
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i> БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҶСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ) .....	196-204
<i>Usmanov Alisher Tolmasovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	205-213
<i>Авезова Элеонора Паракатовна</i> РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	214-218
<i>Муқумов Бобур Мелибод угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ .....	219-224
<i>Туракулова Назира Абдишукуровна</i> СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ: ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН .....	225-232

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хўжамкелдиев Faфур Султон ўғли</i> СПОРТ МАШФУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	233-237
<i>Aziz Xasanovich Rajabiy</i> BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	238-242
<i>Malikova Sevar Samatovna</i> BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	243-246
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ .....	247-251
<i>Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich</i> AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES .....	252-257
<i>Асадуллаева Наргиза</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ .....	258-265
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi</i> BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA КОМПЕТЕНСИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРISHNING PEDAGOGIK MODELI .....	266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA) .....	273-277
<i>Numonjonov Shohzodbek Dilshodjon uғli</i> OLIY TEHNIKA TA'LLIMIDA MEХNAT MUХOFAZASI VA TEHNIKA XAVFSIZLIGI KOИDALARINI ЎҚITISHDA ЭLEKTRON METODIK ASOSLARNING ILMIIY AҲAMIAHYI .....	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA .....	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI .....	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI .....	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI .....	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE .....	330-349

**Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi  
[elbek\\_ruziyev@mail.ru](mailto:elbek_ruziyev@mail.ru)

## **AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqlada ijtimoiy-siyosiy nutqning tarkibiy qismi hisoblangan yorliqlar matnidagi siyosiy nutqning lingvistik xususiyatlari tahliliga ahamiyat qaratilgan. Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurish boshlagan paytda qoyaga yozilgan bitigi, Xorazmdagi Abu Muslim avlodlari haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turkiy (eski o'zbek) bitigi hamda Shohruh mirzoning turkiy tildagi yorliqlarining matn xususiyatlari va ularda ifodalangan siyosiy matnning o'ziga xosligiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** turkiy siyosiy nutq, yorliq matnlari, siyosiy nutq, Amir Temur, Shohruh Mirzo

**Ruziev Elbek**  
Teacher of the department of uzbek linguistics,  
Termiz state university

## **THE USE OF POLITICAL SPEECH FORMS IN THE LABELS OF AMIR TEMUR AND THE TEMURI'S RULERS**

**Abstract.** This article focuses on the analysis of linguistic features of political speech in the text of labels, which are considered a component of socio-political speech. The inscription written on the rock by Amir Temur when he started his campaign against Tokhtamish Khan, the Turkish (old Uzbek) inscription aimed at protecting the rights of the descendants of Abu Muslim in Khorezm, and the textual features of Shahrukh Mirza's labels in Turkish and the uniqueness of the political text expressed in them indicated.

**Key words:** Turkish political speech, label text, political speech, Amir Temur, Shahrukh Mirza

**Рузиев Элбек**  
Преподаватель кафедры узбекского языкоznания  
Термезский государственный университет

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЧЕВЫХ ФОРМ В ЯРЛЫКАХ АМИР ТЕМУР И ТЕМУРСКИХ ПРАВИТЕЛЕЙ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу языковых особенностей политической речи в тексте ярлыков, которые считаются составной частью общественно-политической речи. Надпись, написанная на скале Амиром Темуром в начале похода против Тохтамыш-хана, турецкая (староузбекская) надпись, направленная на защиту прав потомков Абу Муслима в Хорезме, и текстовые особенности надписей Шахруха Мирзы на турецком и уникальность политического текста, выраженного в них.

**Ключевые слова:** Турецкая политическая речь, тексте ярлыков, политическая речь, Амир Темур, Шахрух Мирза

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N21>

**Kirish.** Siyosiy nutq – majlis, qurultoy va kengashlarda so‘zlanadigan nutq bo‘lib, bunda rahbar xodim muayyan davrga xos dolzarb siyosiy masalani yoritib beradi [5; -B 28]. Siyosiy-rasmiy diplomatik nutq, uning ta’rifi haqida professor Q.Sodiqov to‘xtalar ekan, bu tushunchaga quyidagicha izoh berib o‘tadi: Siyosiy, rasmiy-diplomatik nutq deganda xoqonlar, xonlar, sultonlar, davlat arboblarining el-ulusga qarata aytgan so‘zlari, rasmiy murojaati, yorlig‘i, hukumat idoralariga ko‘rsatmalari, turli yurt egalari bilan o‘zaro yozma muloqoti anglashiladi [6; -b. 524]. Bundan ham anglashiladiki, til tarixida rasmiy murojaat matnlarini, yorliqlarni, hukmdor tomonidan yuborilgan elchilik yozishmalarini ham siyosiy nutqqa kiritishimiz mumkin. XI-XVI asrlarda siyosiy nutqqa oid manbalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu davr o‘zbek davlatchiligining eng yuqori sivilizatsiya bosqichiga yetganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, turkiy davlatchilik an‘anasiga ega bo‘lgan Qoraxoniyalar hamda Osiyoda buyuk davlat tuzgan Sohibqiron Amir Temur hamda Temuriylar davri o‘zining shon-shuhrati bilan tarixda munosib o‘ringa ega bo‘lgan. Davr ijtimoiy-siyosiy holati haqida ma’lumot beruvchi juda ko‘plab tarixiy manbalar bizgacha yetib kelgan. Ushbu manbalarda albatta, hukmdorlar nutqiga oid jumlalar ham bir qadar bisyordir. Biz asosan maqolamizda ushbu jihatga ahamiyat qaratmoqchimiz.

Tarixiy asarlarda xususan, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida [3] ham Amir Temurning har bir yurishida lashkarboshilari, maslahatchilari bilan o‘zaro suhbat qilishi, elchilar bilan aloqalari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shunga oid bo‘lgan bir qancha ma’lumotlarni o‘rganish asnosida, ajdodlarimizning notiqlik borasidagi tajribasi hamda o‘zbek notiqlik tarixida siyosiy nutqning bir qancha qadimiy tarixga borib tutashini anglashimiz mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Maqolani yoritishda turkolog olimlar: Q.Sodiqovning “Eski o‘zbek yozma adabiy tili”, “Temuriylar davrida yaratilgan uyg‘ur yozuvli yorliqlar” [6], Q.Omonovning “Eski turkiy diplomatik hujjatlar: tarixiy-filologik tahlil” [8], B.Mannonov, G.Ostonova, Sh.Kamoliddinlar tomonidan yozilgan “Amir Temurning turkiy yorlig‘i” [9] kabi asarlardan amaliy foydalanildi.

Maqolada bilishning obyektivlik usuli hamda tilshunoslikning qiyosiy-tavsifiy, tasniflash metodidan foydalanilgan holda mulohazalar yuritilgan.

**Muhokama va natijalar.** Sohibqiron Amir Temurning rasmiy nutqlaridan biri To‘xtamishxonga qarshi yurish boshlagan chog‘da qoyaga yozilgan bitigida yetib kelgan. Ushbu bitik toba deb atalgan. Bitik arabcha va eski o‘zbek tilida bitilgandir. Ma’lumki, Amir Termur yeti yuz to‘qson uchinchi yil ko‘klamida (milodiy yil hisobida 1391-yil aprel) To‘xtamishga qarshi yurish boshlagan. Sultonning nomidan yozilgan bitik o’n bir satrli bo‘lib, ilk uch qatori arabcha, keyingi sakkiz satri uyg‘ur xati bilan turkiy tilda bitilgan. Arab xatidagi bosmalarga qaraganda, uyg‘ur xatidagi matn nisbatan yaxshi saqlangan.

Bitikdagagi turkiy matnning o‘qilishi: Tarix yetti yüz toqsan üçtä, qoy yıl yazniy ara ay Turannij sultāni Temür-beg üç yüz miň čerig bilä islām üçün Toxtamiš-xan bulğar xaniğıa yordi. Bu yergä yetip belgü bolsun tep bu tobani qopardı. Tänri nisfat bergäy inşalla. Tänri el kişigä rahmat qılıgay, bizni duā bilä yād qılıgay.

Mazmuni. “Tarix yetti yuz to‘qson uchda, qo‘y yil, ko‘klamning ora oy(ida) Turonning sultonı Temurbeg uch yuz ming qo‘sish bilan islom uchun To‘xtamishxon bulg‘ar xoniga (qarshi) qo‘sish tortdi. Bu yerga yetib, belgi bo‘lsin deb ushbu bitigtoshni yozdirdi. Tangri

(bizga) nisfat [ya'ni to'g'rilik, insof] bergay inshoolo. Tangri fuqaroga rahm qilg'ay, (el) bizni duo bilan yod qilg'ay"<sup>1</sup>.

Eski turkiy tilda yozilgan ushbu bitik bugungi tilimiz leksikasidan farqli hisoblanadi, albatta. Jumladan, Tänri nisfat bergäy inšalla – jumlasida esa tangi insof va adolat bergay degan ma'noda qo'llanilmoqda. Čerig- askar, yoridi- yurdi, qo'shin tortmoq ma'nosida ifoda etilmoqda. Bu davrdagi gap sintaksisi ham o'ziga xos hisoblanib, "yoridi", "qopardi" so'zlarini kesim vazifasini bajarib kelmoqda. "Bu yergä yetip belgü bolsun tep bu tobani qopardi" – gapi sintaktik jihatdan maqsad ergash gapli qo'shma gapni yuzaga keltirmoqda. Bitikning e'tiborni tortadigan yana bir xususiyati undagi tarix (sana) asl turkiy qolipda: avval yil (hijriy va muchal tartibida), so'ngra oy, kun ketma-ketligidadir [6; -B.545].

Amir Temurning farmoyishiga muvofiq Xorazmdagi Abu Muslim avlodlari haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turkiy (eski o'zbek)da bitilgan va uning shaxsiy muhri bilan tasdiqlangan Yorliqning topilish va o'rganilish tarixi, uning faksimile surati, arab imlosidagi matni va hozirgi o'zbekchaga tabdili, shuningdek ilmiy izohlar va tarixiy voqealar tahlili berilgan.

Yorliq bizgacha yetib kelgan shu mazmundagi yorliqlar ichida eng nodir hujjat sifatida beqiyos qadr-qimmatga egadir. Yorliq Samarqand qog'oziga turkiy tilda chiroysi nasta'liq xati bilan bitilgan va uning hajmi bir varaq (o'lchovi 29 X 47 sm), 11 satr dan iborat. Vaqt o'tishi bildn qog'oz ancha uringan, shu tufayli uning ayrim so'zlarini o'qish mushkullashgan "Yorliq" ning birinchi va uchinchi qatorlarining o'ng tomonida bodom shaklidagi muhr bosilgan. Muhrning o'rta qismida yirik harflar bilan "Amir Temur Ko'ragon bin Tarag'ay" deb yozilgan. Muhrning hoshiyasida esa mayda harflarda yozilgan va o'qilishi qiyin Qur'oni Karim oyatlari keltirilganligini taxmin qilish mumkin. "Yorliq" butun borligicha shohi matoga yopishtirilgan holda ta'mirlangan [8].

Yorliqning arab imlosidagi matni

- (1) ابو مظفر فخر(؟) المنصور امير تيمور محمد بهادرخان سوزم
- (2) حکم همایون جهان پناهی بولدی کیم قدیم الایام دین الى هذا الهنکام
- (3) تعظیم و توقیر اولاد سید کاینات خلاصه زبدہ موجودات اهل حکومت
- (4) پادشاهلار غه سایر اهل اسلام غه واجب و لازم ایردی بو وجه دین حکام ذوی الاحترام ماقدم لاریغه اولاد
- (5) ابو مسلم نى جميع تکلیفات دین بويى و مرفع القلم قلیب نشان مبارکلارینى بيرکان ایرکانلار بىز ھم بىستور سابق بو اولادنى
- (6) الطاف خسروانه بىرلە سرفراز و مرحمت قىلادۇق كىم انچە عملدارلاركە مثل عناقلار و اتالىقلار و قوقساول لار و جىداول لار
- (7) او دايچىلار و چىلار و يولچىلار و قوشچىلار و تمامى آيىغىدار و جميع تحصىلدارلار و صاحبىدخل لار كە دارالسطنه ولايت
- (8) خوارزم دە حوالە گىردىر لار مثل آفا و ارباب و غيرهم بو عنایت نامە يارلىق الارغە منظور بولغاچ كماحقه(م)
- (9) بو او لادلارنىڭ بواجى بىرلاپ كىلتۈرۈپ الارغە هىچ وجه دين سبب تصدىع و از اربوچىماعە

<sup>1</sup> Ushbu matn hamda uning tarjimasi quyidagi manbadan olindi: Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar Qosimjon Sodiqov transkripsiyasi va talqinida. Toshkent – 2016.

- اولмосонлар و على الخصوص اهل قضا و محتسب نکاحانه و محتسبانه طلب قلماسонлар الارنىنگ اوز (10)  
لارидин اهل صلاھىرى قاضى بولوب
- تبليغ حكام قاضى قىلسونلار آفرىیده الاردىن بازار ده و بولده خرج و باج طلب قىلسونلار تاكى لەتتالاغە (11)  
گۈفتار بولىغايلار تىپ حكم عالي بىلدى - 780

Yorliq matnining lotin o'zbekchasiдagi tadbili. Ushbu tadbil "Amir Temurning turkiy yorlig'i" risolasidan olindi [8]:

- 1- "Abu-l-Muzaffar" ..... r(?) al-Mansur Amir Temur Muhammad Bahodirxon so'zim!
- 2- Hukm-i humoyun-i jahonpanohiy bo'ldim, qadim ul-ayyomdin ilo hoza-l-hangom
- 3- ta'zim va tavqir-i avlod-i sayyidi Koinot, xulosa-yi zubday-yi mavjudot, ahl-i hukumat
- 4- podshohlarg'a va soir-i ahl-i islomg'a vojib va lozim erdi, bu vajhdin hukkom-i zavi-l-ehtirom mo taqaddamlorig'a avlod-i
- 5- Abu Muslimni jami'i taklifotdin siva va marfa ul-qadam qilib, nishon-i muboraklorini berkon erkonalor. Biz ham ba-dastur-i sobiq bu avlodni
- 6- Altof-i xisravona birla sarafroz va marhamat qilduq-kim, oncha amaldorlorki, misl-i inoqlar va atoyiqlar va to'qsovullar va jig'dovullar
- 7- Va udaychilor va elchilar va yo'lchilar va qushchilor va tamomi olig'dor va jami-i tahsldorlar va sohib-i daxllorka, dor-u saltana-i viloyati-i
- 8- Xvorazmda havolagardurlar, misl-i aqo va arbob va g'ayrihim, bu inoyatnoma Yorliq alorg'a manzur bo'lg'och, kamo haqqihu(m)
- 9- Bu avlodlarning ba-vojibiy izzat va ikromlorini barjo kelturub alorg'a hech vajhdin sababi-i tasdi va ozor bu jamo'a
- 10- O'lmasunlor, va alo-l-xusus, ahl-i qazo va muhtasib nikohona va muhtasibona talab qilmosunlar. Alorning o'zloridin ahl-i salohlari qoai bo'lib,
- 11- Tablig'i kukkom qozi qilsunlor, ofarida-yi alordin bozorda va yo'lda xarj va boj talab qilmasunlor, toki lanatlorg'a giriftor bo'lmog'oylor teb, hukm-i oliy bitildi-780

Yorliqqa yozilgan muhr ichidagi yozuv

"Amir Temur Ko'ragon bin Tarag'ay"

Yuqorida biz ahamiyat qaratayotgan yorlig'imiz ham imtiyoz huquqini beruvchi yorliq sanaladi. Oltin O'rda va Temuriylar davri diplomatik hamda turkiy hujjatchiligidä yorliq va maktublar xonlar yoki sultonlar tilidan bitilgan. Ularning so'zlari yozib olingen va keyinchalik qog'ozga ko'chirilgan. Ulardagi nutq monologik xarakterni namoyon qilgan holda bir kishiga, ya'ni hukmdorga tegishli bo'lgan. Ma'lumki, Amir Temur va temuriylar o'zlarini sulton deb ataganlar. Undan tashqari bahodur, ko'ragan singari so'zlar hukmdorlar unvoni bo'lgan. Yorliq matnida ham Amir Temur "Bahodirxon so'zim" jumlesi bilan so'z boshlayapdi. Yana bir narsani esdan chiqarmaslik kerakki, ilk va o'rta asrlarda yaratilgan yorliqlarning unvonlarida sözüm kalimasi qo'llangan. U "Bu mening farmonim, yorlig'im" degan ma'noni anglatgan [6; -B.559].

XI-XIV asrlar turkiy tillarning o'ziga xosligi ayniqsa davr fonetikasi haqida professor Q.Mahmudov to'xtalib o'tar ekan o'rganilayotgan yozma obidalar tilida ham qoraxoniyalar davriga xos lingvistik xususiyatlar saqlanganligini, shuningdek, o'g'uz, qipchoq lahjalarining

ham ma'lum darajada mavjudligi bu yozma yodgorliklar turkiy qabila tillari xususiyatlarini aks ettirganligi, o'zbek tilining rivojlanishiga aktiv ta'sir etganligini ta'kidlab o'tadi [2; -b.9].

Izofa fors tilida so'z birikmasini tuzish uchun ishlatiladigan vositadir. Izofiy usul bilan so'z birikmasi yasalganda aniqlovchi (tobe so'z) va aniqlanmish (bosh so'z), qaratqich (tobe so'z) va qaralmish (bosh so'z) bir-biriga qisqa tovushi bilan birikadi. O'zbek tilida oldin aniqlovchi (qaratqich), keyin aniqlanmish (qaralmish) kelsa, fors tilida, aksincha, avval aniqlanmish (qaralmish), so'ng aniqlovchi (qaratqich) keladi. Ya'ni so'z birikmasining joylashish tartibi o'zbek tiliga nisbatan teskari bo'ladi [4; -B.54]. Qadimgi turkiy til tarixiga nazar tashlasak forsiy izofa bilan bir qatorda turkiy izofa ham mavjuddir. Turkiy izofa otning aniqlovchi va aniqlanmishlik aloqasiga kirishuvidir. Odatda birinchi ot aniqlovchi, keyingi ot esa aniqlanmish bo'ladi [1; -B.46]. Qadimgi turkiy tilde izofaning har ikki ot qismi qo'shimchasiz kelgan turi qo'llaniladi. Tyryk bodun- turk xalqi.

*Күл тпәгин қой үйлә үәти үәгири миқә учди – Kul tegin qo'y yilining o'n yettisida o'ldi.* Turkiy izofaning ikkinchi turi (aniqlovchining belgisiz kelishi) kamroq uchraydi: *Түрчк оғуз бәгләре (turk o'g'uz beklari), Бодун бөғзи (xalq qorni), Бизинг сү (bizning qo'shin), Мәнинг эр (mening bahodirim) kabi.*

Qadimgi turkiy tilda tojikcha va arabcha izofalar uchramaydi. Faqat tojikcha izofaga o'xshash birikmalar (aniqlovchi aniqlapmishdan so'ng keladi) borki, ular keyingi davrlarda ishlatilmaydi: ulug'i xatun – xotinlar ulug'i, qalmishi bodun – xalqning qolgani, singari bodun - xalqning yarmi kabilar.

Temuriy hukmdorlarda Shohruh mirzoning turkiy tildagi yorliqlaridan faqatgina bittasi bizgacha yetib kelgan. Yorliq turkiy-uyg'ur xatida bitilgan. U Afg'onistonning Maymana degan joyidan topilgan. Uni professor E.Benvenist suratga tushirib qo'yan hamda surat bo'yicha J. Deny matn transkripsyasi hamda tarjimasini amalga oshirgan. Ushbu yorliq bo'yicha professor Qosimjon Sodiqovning maqolasida ham ancha mufassal ma'lumotlar berib o'tilgan [7]. Bu maqolada yorliqning traskripsyasi hozirgi o'zbek tilidagi tarjimasi hamda yorliq tarkibidagi lug'atlar izohlab chiqilgan.

**Yorliqning matni.** (1) Šähruh bahadur sözüm (2) dívânlarğa. Cečäktöbädä Tarnaq ariği(3) da Talxon atanïñ mujävurigä bir (4) qoşluq altmış kivi yer suyurğal berildi. Luy yıldın başlap (5) ne kim häsilini Ut böri xanaqağa xarj qilsun. Kim ersä (6) mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küç-uğa tegürmäsün, tep (7) beg niş(ā)n bermiş erdük. Burunğı niş(ā)n yosuni bilä ud yıldın (8) başlap Ut böri, altmış kivi yerni suyurğal yosunu (9) birlä alip (?) xanaqaşa xarj qilsun-kim, küm ersä (10) mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küç-uğa tegürmäsün. Basa (11) İsmäyl mujävurnıñ ewi barınıi tartıp tonup almasun, (12) tep niş(ā)n berildi. Tarix sekiz yüz y(i)g(i)rmi beşidä ud yıl muharram (13) aynıñ y(i)g(i)rmi ikisidä Bağı şaharda bitildi.

Yorliq matnining hozirgi o'zbek tiliga tarjimasi. Shahruh bahadur so'zim devonlarg'a Chechakto'bada, Tarnaq arig'ida Talxon ota mozorining mujovuliga bir qo'shluq oltmish kivi yer suyurg'ol berildi, luy (ajdar) yilidan boshlab nainki hosilni qaytarmaslik sharti bilan Ut bo'ri xanoqoga harj qilsin. Kimsa undan mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin deb beg-nishon bermish erdik. Bugungi nishonning yo'sini bilan sigir yildan boshlab (qaytarmaslik sharti bilan) Ut bo'ri olmish kivi yerni suyurg'ol yusuni birla, olib xonoqoga harj qilsinkim, kimsa undan mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin. Yana Ismoil mujovurning uy-joyini mol-mulkini tortib olmasun deb nishon berildi. Tarix: sakkiz yuz yigirma beshida, sigir yili muharram oyining yigirma ikkisida (1422 yilning 16-yanvarida) Bog'i shaharda bitildi.

O'rta asrlarga, xususan temuriylar davriga kelib turkiy **sab~saw** o'rnini söz kalimasi oladi va u ham istilohga aylanib hukmdorning so'zi, farmoni, qarori ma'nolarini ifoda etadi. Yuqoridagi matndagi **Šähruh bahadur sözüm** jumlesi ham aynan Shohruh mirzoga tegishli farmon ekanligini ifoda etadi. Šähruh bahadur sözüm jumlesi uchta komponentdan tuzilgan: xonning oti (Šähruh), unvoni (bahadur), farmonning unga tegishlilagini anglatuvchi yorliq (sözüm). Bu atama, o'z navbatida, sultonning siyosiy, rasmiy-diplomatik nutqini anglatadi. Ushbu yorliqdagi dīvānlarga so'zi yorliqning ijrosini ta'minlayotgan tashkilotlarga qarata yo'naltirilmoqda. Adresat hamda adresant munosabati yuzaga chiqmoqda. Matnda u jo'nalish kelishligi shaklida ifodalangan. Bitikning asosiy qismni tashkil etgan ma'lum komponentga e'tibor qaratish maqsadga muofiq: Bundan avval berilgan suyurg'alning imtiyoz va shart-sharoitlari. Bunga ko'ra, Talxan ota mazorining mujovuriga bir qo'shluq oltmis kivi yer suyurg'al berilib, luy (ajdar) yildan boshlab naikim hosilini qaytarmaslik sharti bilan xonoqoga harj qilishi, hech kimsa undan mol-mulk qistamasligi, soliq solmasligi, zo'ravonlik qilmasligi beklik nishonida qayd etilgan. Matnda ushbu jumlaning kesimi o'tgan zamonda (bermiš erdük) [6].

Yorliqdagi ayrim so'zlarning izohli lug'atini ham keltirib o'tsak (1-rasm). Bu lug'atlar yorliq matnini yanada yaxshi o'rganishimiz uchun muhimdir.

Yorliq matnida	Hozirgi tilimizda	Yorliq matnida	Hozirgi tilimizda
<b>Müjavur</b>	Maqbaraga qarab turuvchi kimsa	Ud yil	Sigir yili
<b>Luy yil</b>	Turk muchal yili bo'yicha ajdar yili	Yosun	Qonun qoida, yo'sun
<b>Yasaq alpağ</b>	Soliq turi	Küč-uğa	Zulm, zo'ravonlik
<b>Beg nişan</b>	Beklik yorlig'i	Ewi barinii	Uy-joyi

### 1-rasm

**Xulosa.** Amir Temur hamda Temuriylar davrida ham siyosiy nutqqa oid bo'lgan manbalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davrdagi siyosiy matnlar komponentlarini turkiy tildagi yozuvlar bilan bir qatorda uyg'ur alifbosidagi matnlar ham tashkil etadi. Umuman olganda, o'zbek tili tarixi, xususan uning tarkibiy qismi hisoblanuvchi siyosiy nutq shakllarini tadqiq etish sharq notiqlik san'atining qadim zamondan sharq xalqlari hayotida muhim o'ringa ega ekanligini ko'rish mumkin. Bu kabi matnlarni tadqiq etish turkiy tillar tarixidagi siyosiy nutqning qo'llanishi hamda taraqqiyoti jarayonlarini kengroq o'rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Keyingi tadqiqotlarimizda bu kabi ishlarni kengroq yoritish niyatidamiz.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -Toshkent: O'qituvchi, 1982.
2. Mahmudov Q. XIII-XIV asr yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. -Toshkent: Fan, 1990.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva. Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik - T.: "Musiqa", 2006.
5. Rixsiyeva G.Sh., Sodiqova Sh.B. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: 2009.
6. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. –Toshkent: Akademnashr, 2022. –b.524

7. Sodiqov Q. Temuriylar davrida yaratilgan uyg'ur yozuvli yorliqlar. Sharq mash'ali jurnali 1/2014 son.
8. Б. Маннонов, Г. Остонова, Ш. Камолиддин. Амир Темурнинг туркий ёрлиғи. Тошкент. 2005.
9. Омонов Қ. Эски туркий дипломатик хужжатлар: тарихий - филологик тахлил. -Т.: "Extremum-press", 2015.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 7 (3) – 2023*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).